

BOG'LOVCHILAR VA ULARNING TURLARI.

Salimova Zuhra Elmurodovna

Urgut tumani 10-maktab Ona tili va Adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bog'lovchilarning qo'llanilishiga ko'ra turlari, ularning gap bo'laklari va gaplarni bir-biriga bog'lashiga ko'ra turlari, hamda bog'lovchilarning vazifalarini haqida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: bog'lovchilar, so'zlar, gap, qo'shma gap, ayiruv bog'lovchilari, zidlov bog'lovchilari, takrorlanuvchi bog'lovchilar.

So'zlar va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lash uchun qo'llaniladigan yordamchi so'zlar bog'lovchilar deyiladi. Bog'lovchi so'zlar va gaplar o'rtasidagi munosabatlarni ta'minlansa ham ular bilan birlashmaydi. Yakka holda ham biror so'zga qo'shilgan holda ham biror gap bo'lagi bo'lib kelmaydi. Bog'lovchilarning qo'llanishiga ko'ra ikki xil: Yakka bog'lovchilar, takrorlanuvchi bog'lovchilar. Yakka bog'lovchilar: va, ham, hamda, ammo, lekin, biroq, chunki, balki, basharti, shuning uchun kabi. Takrorlanuvchi bog'lovchilar nutqda takror holda ishlatiladi: yo, yoki, goh, dam, ba'zan, bir, na (yo, yoki bog'lovchilari yakka holda ham ishlatiladi). Yo boshiga tushgan tashvish bilan bo'lib shogirdini chaqirgani yodidan ko'tarildimikan?

Bog'lovchilar gap bo'laklari va gaplarni qay tarzda bog'lasliiga ko'ra ikki xil: teng bog'lovchilar, ergashtiruvchi bog'lovchilar. Teng bog'lovchilar gap bo'laklari va gaplarni grammatik jihatdan tenglanish asosida munosabatlari bo'lmaydi. Teng bog'lovchilarning quyidagi turlari bor: birikiruvchi bog'lovchilari, zidlov bog'lovchilari, ayiruv bog'lovchilari, inkor bog'lovchisi.

Biriktiruv bog'lovchilari: va, ham, hamda. Bu bog'lovchililar uyushiq bo'laklarni va gaplarni bog'laydi. Masalan: xayriyatki hukmdorlar oldida hayajonga tushish va ta'zim qilish odat tusiga kirib qolgan. (Pirimqul Qodirov) Bu bog'lovchilar o'rnida -da, -u, yu yuklamalari ham ishlatiladi. Haligi yigit boshini ko'tarib Saidiyga bir qaradi-da, yana o'z ishi bilan mashg'ul bo'ldi. Zidlov bog'lovchilari: ammo, lekin, biroq. Bu bog'lovchilar

mazmunan bir-biriga zid qo'yilgan gap va gap bo'laklarini bog'laydi. Tavba! Oradan shuncha yil o'tib ketibdi.

-u, -yu yuklamalari zidlov bog'lovchisi vazifasida qo'llaniladi. Qzroq mizg'ib olmoqchi bo'ldi-yu, tanasining zirqirab og'riganidan ko'z ilmadi.

Ayiruv bog'lovchilari: yo, yoki, goh, dam, ba'zan, bir. Bu bog'lovchilar asosan takrorlangan holda qo'llanilib, gap bo'laklari va gaplarni bir-biridan ajratish hamda galma-gal yuz beradigan voqea-hodisalarni ifodalovchi gaplarni bog'lash uchun qo'llaniladi. Saltanat gohi g'amgin kulimsirab goh xomush beg 'ubor qizlik onlarini o'ylar.

Inkor bog'lovchisi: na. Bu bog'lovchi uyushiq bo'lak va gaplarni bo'lihsizlik, inkor mazmuni asosida bog'laydi. Uning qilayotgan ishlarini ko'rib na yaxshi, na yomon derdi.

Ergashtiruvchi bog'lovchilar qo'shma-gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'lash uchun ishlatiladi: agar, basharti, chunki, go'yo, go'yoki, garchi, toki, shuning uchun, — ki, (-kim). Bu bog'lovchilar qo'shma gap tarkibidagi gaplarni tobelash asosida bog'laydi. Ergashtiruvchi bog'lovchilar gaplarni mazmunan bog'lashiga ko'ra quyidagicha: aniqlov bog'lovchisi, sabab bog'lovchilari, maqsad bog'lovchisi, chog'ishtiruv bog'lovchilari, shart va to'siqsizlik bog'lovchilari:

Aniqlov bog'lovchisi. -ki (-kim). Bu bog'lovchi eng ko'p qo'llaniladi. Aniqlov bog'lovchisi deyarli ergashgan qo'shma gaplarning har xil turlarini o'zaro bog'lab, gapning biror bo'lagini izohlab, aniqlash uchun ishlatiladi. Oradan ikki oy o'tdi hamki inspektor chiqmadi. (Abdulla Qahhor) Sabab bog'lovchilari: chunki, shuning uchun, negaki. Bu bog'lovchilar ergashgan qo'shma gap tarkibidagi asosiy fikrning yuzaga kelishidagi sababni ifodalash uchun ishlatiladi. Nega yaxshi ishlamaydi! Chunki yaxshi savodli, siyosiy bilimli muxbirlar kam. (Abdulla Qahhor)

Maqsad bog'lovchisi: toki. Bu bog'lovchi maqsad ma'nosini ifodalovchi ergashgan qo'shma gaplarni bog'lash uchun ishlatiladi.

Chog'ishtiruv bog'lovchilari: go'yo, go'yoki. Bu bog'lovchilar voqea -hodisalarni, narsa-predmetlarni o'xshatish uchun ishlatiladi. O'xshatish ergash gapli qo'shma gaplarni bog'lashda qo'llaniladi. "Bog'i maydon" darvozasiga yetganda go'yo yer yutganday yo'q bo'ldi-qoldi:(Odil Yoqubov)

Bu bog'lovchi ko'pincha voqea-hodisaning noaniqligini, gumonligini ifodalashda ham qo'llaniladi. Go'yo Shohruh Mirzo Samarqandga tashrif buyurganida mashhur bir temirchiga qilich buyurgan. temirchi esa qilich yasashdan bosh tortgan.(Odil Yoqubov) Shart va to'siqsizlik bog'Iovchilari: agar, agarda, garchi , basharti, bog'lovchilar yuzaga chiqishi shart bo'lgan voqea- hodisalarning muayyan fikrga zidligini, ammo uning yuzaga chiqishiga to'siq bo'la olmasligini ifodalaydi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda so‘zlarning lug‘aviy va grammatik ma’no jihatdan o‘xshashligiga ko‘ra ayrim leksik - grammatik guruhlariga ajratilish so‘z turkumlari deyiladi. So‘zlarni turkumlarga ajratishda ularning grammatik ma’no-lari bilan bir qatorda, lug'aviy ma’nosi ham asosiy belgilardan hisob-lanadi. Ham grammatik, ham leksik ma’nolarga ega bo‘lib, gapda mustaqil sintaktik bo‘lak sifatida ishtirok etadigan so‘zlar mustaqil so‘zlar deyiladi. Mustaqil so‘zlarga: ot, sifat, son, olmosh, fe‘l, ravish kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmatullayev Sh, Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “Universitet”— 2006
2. Shoabdurahmonov. Sh, Asqarova. M, Hojiyev. A, Rasulov. I, Doniyorov. X, Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, “O‘qituvchi” — 1980
3. E. Qilichev, O‘zbek tilining amaliy stilistikasi. Toshkent, “O‘qituvchi” nashriyoti 1992-yil
4. R. Sayfullayeva, B. Mengliyev, G. Boqiyeva, M. Qurbonova, Z. Yunusova, M. Abuzalova “ Hozirgi o‘zbek adabiy tili” Toshkent - 2009
5. N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov, D. Nabiyeva, A. Mirzaahmedov 7-sinf ona tili darslik, Toshkent “Ma’naviyat” —2017